

# Ching'atoy

№1, 2023

gurunqi

چىغاتاي گۈرۈنگى

BIRINCHI  
**ADABIY**  
UYUSHMA

**MAORIF**  
SHO'ROSI  
DIQQATIG'A

O'ZBEK  
ALIFBOSINING  
**UCH OLTIN**  
QOIDASI

HAR BIR  
TARJIMONNING  
**KO'Z OSTIGA**  
OLIB QO'YGAN  
ASARI BO'LADI

**Abdurauf**  
**FITRAT:**

**Turma-yugur**  
**Tinma-tirish**  
**Bukilma-yuksal!**







*O‘Z TAJRIBAMDAN KELIB CHIQIB, SIZLARGA  
AYTADIGAN MASLAHATIM SHU:  
ILMNI QADRLANG, ILMGA INTILING! BIR SONIYA  
VAQTINGIZ HAM BEKOR O‘TMASIN! YOSHLIK –  
UMRNING ENG BEBAHO DAVRI. ILM O‘TDA  
YONMAYDIGAN, SUVDA CHO‘KMAYDIGAN, HECH  
KIM SIZDAN TORTIB OLOLMAYDIGAN BOYLIK  
EKANINI ASLO UNUTMANG!*

**Shavkat Mirziyoyev,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## BIRINCHI SO‘Z



**Hilola Umarova,**  
*Maktabgacha va  
maktab ta'limi vaziri*

### MUHTARAM MUSHTARIY!

O'zgacha qiziqish bilan varaqlayotganingiz "Chig'atoy gurungi" jurnalining ilk soni barchamizga qutlug' bo'lsin!

Jurnalning nomini o'qiboq istiqlolni orzular o'tgan jadid bobolarimizning qaynoq nafasini his qilamiz. Ilk professorlarimizdan biri sanalgan Abdurauf Fitrat asos solgan "Chig'atoy gurungi" adabiy uyushmasi o'z davrida progressiv qarashlar olg'a surilgan zamonaviy platforma edi, deyish mumkin. Ishonimizki, yangi jurnal ham zamonamizning ilg'or fikrli yoshlariga chinakam mulohaza maydoni bo'ladi!

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Uchinchi Renessans poydevori qo'yilayotgan yangi O'zbekistonda ulug' ajdodlarimiz, xususan, jadid bobolarimizning ilmiy-ma'rifiy, adabiy merosi, ezgu g'oyalari bizga hamisha yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi. Jadidlarimiz o'z davrida yangi usulda maktablar ochib, xalqqa zamonaviy bilim, ma'rifat ulashgan bo'lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan mutlaqo yangi ta'lim tizimi hamda Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar chinakam iste'dodlarni kamolga yetkazmoqda.

Ana shunday ta'lim maskanlaridan biri – Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining har chorakda adabiy-badiiy, ilmiy-ma'rifiy

jurnal nashr etish tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va qutlaymiz. Axborot texnologiyalari qanchalar rivojlanmasin, an'anaviy bosma nashrlarning, kitobning o'rnini hech qachon bosa olmaydi. Shu ma'noda "Chig'atoy gurungi" jurnali nafaqat ijod maktabi doirasida, balki boshqa ta'lim muassasalari hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo'lishiga ishonaman.

Jurnal mazmun-mundarijasi rang-barang. Maqolalar, tahlillar, suhbatlar, ma'lumotlar ijodkor yoshlarga albatta manfaat yetkazadigan darajada mahorat bilan tayyorlangan. Uning ilk sonidanoq jamoatchilik orasida yangilish qo'llanayotgan jummalarni, noto'g'ri qarashlarni isloh qilish boshlangani ham alohida e'tiborga loyiq. Masalan, "Ustoz otangdan ulug'" degan lutfni hozirda "Ustoz otangdek ulug'" tarzida xato qo'llaydigan ziyolilar oz emas. Lekin ijod maktabining 8-sinf o'quvchisi "Otdan ulug' ustoz" hikoyasida birgina shu jumlaning to'g'ri talqin qilish orqali adabiy tilimiz imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mantiqiy fikrlash salohiyatini ko'rsata olgan.

Umid qilamizki, jadid bobolarimiz zamonida bo'lganidek "Chig'atoy gurungi" qizg'in kechadi. Yangi O'zbekistonning Avloniyolari, Fitratlari, Cho'lponlari, Qodiriylari, Usmon Nosirlariga yaqin hamroh bo'lishni niyat qilgan jurnalga oq yo'l tilaymiz.

## MUNDARIJA

### 6 “Jadidlar” rukni

“Chig‘atoy gurungi” –  
birinchi adabiy uyushma



### 12 Direktor minbari

“Ijod maktablari vatanparvarlik tuyg‘ularining  
bola qalbiga joylashishiga ham xizmat qilmoqda”



### 17 Maktab hayoti

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi –  
yosh iste’dodlarni tarbiyalovchi maskan



### 26 Qodiriy merosi

Ma’orif sho’rosi diqqatig‘a



### 28 Dolzarb mavzu

O‘zbek alifbosining  
uch oltin qoidasi



### 32 Yosh tarjimon do‘stimga

Shohrux Usmonov: “Dunyoda tarjimon zoti borki,  
hammasining ko‘z ostiga olib qo‘ygan asari bo‘ladi”



### 36 Fan va taraqqiyot

Matematika fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya  
(fizika fani misolida)



### 38 “Mujda” rukni

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi  
o‘quvchilarining ijodiy ishlari



#### **Muassis:**

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi  
2023-yildan chiqa boshlagan.

#### **Tahrir hay‘ati:**

Shuhrat Sirojiddinov  
Jamoliddin Nurmuhammad  
Azizbek Turdiyev  
Farrux Jabborov  
Zamira Narbayeva  
Mavluda Iskandarova  
Sanobar To‘laganova

#### **Jamoatchilik kengashi:**

Saidbek Ashirov  
Hakimboy Samandarov  
Bahrom Irzayev  
Temur Xo‘ja  
Zaynobiddin Abdirashidov  
Ma‘mura Zohidova  
Aziza Shonazarova  
G‘aybulla Boboyorov  
Jo‘rabek Jahon

#### **Bosh muharrir:**

Hilola Nazirova

#### **Mas‘ul kotib:**

Nigora Askaraliyeva

#### **Muharrir:**

Sojida Ganiyeva

#### **Rassom:**

Maftuna Xolmatova

#### **Sahifalovchi dizayner:**

Azimjon Jo‘raboyev

#### **Muqovasoz:**

Asila Umarova

#### **Manzilimiz:**

Toshkent shahri, Olmazor tumani,  
Zarqaynar ko‘chasi 6/2  
Indeks 10002

**E-mail:** imaqd@piima.uz  
**Tel:** (998) 95 479 20 80

# “CHIG‘ATOY GURUNGI” — BIRINCHI ADABIY UYUSHMA



## “JADIDLAR” RUKNI

Bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O'zbekistonda Prezident maktablari, ijod maktablarining, jumladan, Toshkentda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining ochilishi shu islohotlarning bir qismidir. Albatta, ushbu maktablarni bitirgan iste'dodli yoshlar qisqa muddatda zamon talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlari, O'zbekiston rivojiga katta hissa qo'shishlariga shubha yo'q.

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi rahbariyatining tashabbusi bilan “Chig'atoy gurungi” nomli jurnal tashkil qilindi. Shu o'rinda jurnalga nega “Chig'atoy gurungi” nomi berilgan, degan savol tug'ilishi mumkin.

“Chig'atoy gurungi” 1918-yilning oxirida Abdurauf Fitrat rahbarligida ochilgan jamiyatdir. XX asrning boshlarida ijtimoiy hayotning turli sohalarida milliy xususiyatlarni tiklash, milliy o'zlikni namoyon qilish borasida buning kabi keng ko'lamli amaliy ishlar olib borgan biror bir jamiyat yo'q edi.

“Ishtirokiyun” gazetasi 1919-yil 4-fevral sonida “Toshkentda Yosh buxoroliklarning faol a'zo-

larindan Fitrat afandi ila o'zbek yoshlari tarafidan “Chig'atoy gurungi” nom(li) yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariati tarafidan tasdiq etilub ishka kirishkan.

Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondag'i eski va yangi turki asarlarni jam qilib, turki tilni ixtyo qilu haqinda materiyol hozirlamak, lug'at va adabiyot dunyosini boyutmoqdur.

Bik vaqtli ham o'rinni ta'asis etilgan bu jamiyatni samim(iy) qalbdan tabrik qilamiz”, degan xabarni bergan.

Jamiyatda Abdurauf Fitrat bilan birga Abdulqayum Ramazon, Sayyid Ali Xo'ja, Mirmashriq Yunus, Shorasul Zunnun, Sho-

kirjon Rahimiy, G'ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhamedov, G'ozzi Yunus, Cho'lpon, Botu, Sanjar Siddiq, Mannon Ramiz, Mannon Uyg'ur, Mo'minjon Muhammadjonov, Abdulmannon Majidiy va boshqalar a'zo bo'lgan.

“Chig'atoy gurungi” turli olimlar, tadqiqotchilar tomonidan “madaniy-ma'rifiy va ilmiy tashkilot”, “birinchi adabiy uyushma”, deb atalgan. Amalda jamiyat a'zolari tomonidan bajarilgan ishlar ko'lami, miqyosi juda keng va sarmahsul bo'lganligini kuza-tish mumkin.

Abdurauf Fitratning shu davrlarda e'lon qilgan asarlaridagi fikrlarga e'tibor beradigan bo'lsak, tilni, adabiyotni milliylash-



tirishga harakat qilganini ko'rish mumkin. U 1919-yilda bosilgan "She'r va shoirliq" maqolasida yozadi: "Biz turklar arab bosqini bilan o'z harflarimiz va o'z yozuvimizni yo'qotgandan keyin o'z adabiyot va she'rlarimizdan ham ayrilishimiz tabiiy edi. Mana shul ayrilish sababli ko'b kerakli narsalarimizni yo'qotdik. Eski adiblarimizning she'r va shoirliq to'g'risida qanday yo'llari, qanday qarashlari bor edi, bunlarni bilmaymiz. Bunlar yo'qolg'on, qo'limizdan chiqq'ondir".

"Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmachi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizg'a qaramasdan taqlid etamiz. Arablar qaysi bir ulusdan qaysi bir so'zni olg'anda o'z shevalarig'a ko'ra buzub olg'alar. Bir arabni o'ldursangiz "Petrograd-Petrsburg" demaydir. "Bitrijrad-Bitrasburj" deydir. "Fransik" demaydir "afrañj" deydir va shunday qilib, o'z tilining istiqlolini saqlag'an bo'ladir. Arablarg'a iyarmak bilan maxtanib yurg'an bizlar esak, arabning bu yaxshi qilig'ina butun qarshi ketamiz".

Fitrat yana "Tilimiz" maqolasida: "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilsizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir", deb yozadi. Uning boyligini ko'rsatish uchun bil so'zidan 98 ta so'z yasalganligini keltiradi. Bu tilning baxtsizligi arab va fors tillarining ta'sirida kelib chiqqanligi haqidagi qarashlarini bayon qiladi. "Ko'zlarimizni to'rt ochib qaraylik, dunyoning buyuk hokimi bo'lg'an Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalg'an Forobiy turkdir. Arab tilini mangulik turg'izib kelgan Javhariy turkdir. "Vahdati vujud" falsafasining imomlaridan bo'lg'an Jaloliddin Rumiy turkdir. Forsiy adabiyotning payg'ambarlaridan bo'lg'an Nizomiy turkdir. Shu yerlarda otlari yozilg'an kimsalar-da yolg'uz turk ulusini emas, butun dunyoning ulug' kishilaridan erurlar.. Bunlar o'z bitiklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi ehtimolki, boshqa turli bo'lur edi. Baxtsizliq bundan-da ortiq bo'lurmi?!".



Aslida tilimizning tarixda tutgan o'rni, mavqeyi juda baland, ko'plab turkiy tillarning shakllanishi, rivojlanishi uchun asos bo'lgan edi. Fitrat "Tilimizning tarixiy oqimi" maqolasida yozadi: "Chig'atoycha O'rta Osiyoda yashag'an turkiy qabila shevalarining hammasidan yuqori turg'an adabiy, rasmiy, baynal qabilaviy bir tildir. Navoiy kabi chig'atoy shoirleri o'zlarining bu adabiy shevalarig'a sodacha "turkcha" otini berganlar.

... chig'atoy turkchasi, chig'atoy adabiyoti, xoqoniy adabiyotning (Qashqardan Hirotg'acha bo'lg'an) yo'li uzun yili ko'p safar natijasida o'zgarib, Islom-Eron ta'siri ostida qolg'an ikkinchi bir shakldir.

... Shunday bo'lsa ham eski nufuzini, eski kuchini yo'qotmadi. Arab-fors adabiyotidan qolishmoq istamay yuraberd. Yolg'iz O'rta Osiyoda emas, butun turk dunyosig'a yoyildi. Totor tiliga bir ko'p yillar jon ozug'i bo'la keldi.


Usmonli va Ozorbayjon turklari ham bu adabiyot bilan mashg'ul bo'ldilar. Bu shevada she'rlar yozdilar, chig'atoy lug'atlari yasadilar".

Fitrat 1921-yili o'tkazilgan tilimlo qurultoyida qilgan ma'ruzasida adabiyotimiz, tilimizning mavqeyi borasidagi qarashlarini mamnuniyat bilan shunday bayon qilgan edi: "Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tkanda bu kungi Ovro'po adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir. Shunga o'zini majbur ko'radir.

Sharq tarixi, adabiyoti – butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo'q bir bog'chadir.

Bu go'zal bog'chadagi gullarni saralab ko'rmakchi bo'lsak, birinchi sirada, birinchi qatorda arab ham eron gullarini, ikkinchi sirada esa urdu ham turk chechaklarini ko'ramiz. Sharq tarix adabiyotida birinchilik arab-eron adabiyotiga, ikkinchilik esa urdu ham turk adabiyotiga berilgandir.

Sharq tarix adabiyotida ikkinchi o'rin tutqon turk adabiyotining eng muhimi, eng ko'pi, eng



qimmatlisi chig'atoy shevasidagi adabiyotdir..

Unda yuksak, oliy, san'atkor adabiyot bor! Chig'atoy tarix adabiyotida Boyqaro, Navoiy, Lutfiy, Umarxon, Fazliy kabi san'at dunyosida mo'jiza ko'rsatub, to'ponlar qilg'on qahramonlarga ko'b uchraymiz.

So'zning qisqasi: chig'atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o'rinni tutqondir.

Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliklari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turarlar..

Chig'atoy adabiyoti – turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'ondan keyin, chig'atoy tilining ham turk tillari orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'onlig'in qabul etmak mutlaqo lozimdir..

Chig'atoy sarfi bilan tatar ham usmonli sarflarini siralab qarag'onda chig'atoychanning sarfda, ya'ni ishtiqoqda boylig'ini ko'ramiz...

Bunlardan boshqa turk tili, turk adabiyoti to'grisinda yozilg'on asarlarning har birini o'qug'onda "chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti – turk tillari va turk adabiyotining onasi, bobosidir" degan so'zlarga uchramoq mumkindir.

Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori bir o'runda turg'onidan tilimizning-da turk tillari orasida yuqori bir mavqe tutg'onini chiqarg'on kabi, bundan ikkinchi bir masala tug'adir: adabiyotimiz arab, fors adabiyotiga qarag'anda ikkinchi sirada ekan, tilimizda arab, fors tillarig'a qarag'anda ikkinchi sirada qolur(mi)?

Bunga javob beramiz: "Yo'q!". Tilimizdagi so'z boylig'i, ishtiqoq kengligi, qoida tugalligi, sarfnahv ingichkalari boshqa sharq tillaridan qolishmas. Bu to'g'rilarda fors tilini butunlay keyinga qoldiradir".

Tarixda ana shunday yuksak mavqega ega bo'lgan til, adabiyot, madaniyat, tarix va mudra-



yotgan, tanazzulga tushib qolgan boshqa sohalarga ham qayta umr bag'ishlash davrning tabii edi. Bu muammolarni "Chig'atoy gurungi" va uning a'zolari ko'tarib chiqdi, o'zining yig'ilishlarida muhokama qilib bordi.

"Gurung" a'zolaridan Botu "Chig'atoy gurungi" tomonidan tashkil etilgan ba'zi majlislar to'g'risida 1930-yilda bo'lgan tergovda shunday ma'lumotlar bergan: "Men bir marta "Chig'atoy gurungi" binosida bo'lib o'tgan majlisda qatnashdim, unda yangi imloni o'rganish kurslarini ochish, chamasi, Q.Ramazon tomonidan tuzilgan o'zbek tilining imlosini o'rganish, o'zbek xalq qo'shiqlarini to'plash, hukumat idoralari oldiga o'zbeklarni o'zbek deb atash masalasini qo'yish kabi muammolar muhokama qilindi. So'nggi masala qanday muhokama etilganligi yodimda yo'q. Men qatnashgan ikkinchi majlis Ramziyning uyida bo'lib o'tdi. U yerda Ramziy va Fitrat o'z she'rlarini o'qidilar. Men tez orada ketib qolganim uchun keyin nima bo'lganini bilmayman. Uchinchi majlis amakivachchamning uyida bo'lib, unda musiqa chalindi. Darvoqe, bu majlislarning hammasida musiqa chalinar edi. Fitrat suhbat paytida har doim o'zbek milliy madaniyatini barpo etish, aniqrog'i, tiriltirish va mustaqil o'zbek millatini yaratish masalasini ko'tarib chiqardi. U o'sha paytda bosmachilik harakatiga shubha bilan qarardi.

**"Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tkanda bu kungi Ovro'po adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir. Shunga o'zini majbur ko'radir".**

U derdi: "Avval – madaniyat, keyin – mustaqillik; bosmachilar Rossiyaga qarshi hech narsa qila olmaydilar; bizning hozirgi vazifamiz millatni madaniy jihatdan tarbiyalashdir".

**Til va imlo masalalari.** "Chig'atoy gurungi"ning "Imlo to'dasi" tomonidan 1919-yilda arab alifbosiga asoslangan yozuvni isloh qilish, milliy tovushlarni ifodalamaydigan harflarni alifbo sirasidan chiqarish, unli tovushlar uchun oltita belgi olish, chet so'zlarni milliy til xususiyatlariga moslashtirish kabi masalalarni kun tartibiga qo'ydilar. Bu juda katta bahs-munozaraga sabab bo'ldi. Fitrat va uning maslakdoshlari o'z maqsadlarini amalga oshirishda, bir tomondan Islomni shior qilib olgan guruhlariga, ikkinchi tomondan panturkistlariga, uchinchi tomondan Munavvarqori boshchiligidagi guruh qarshiligiga uchradi. Panislomistlar tildan arab so'zlarini chiqarish, arab alifbosini isloh qilishga qat'iy qarshi turdilar, "Chig'atoy gurungi" va uning a'zolarini din-

sizlikda, Islom dinini buzishda aybladilar. O'sha davr maktablarida dars berayotgan turk zobitlari, Munavvarqori va uning tarafdorlari ham gurgungchilar bilan ayovsiz kurashdilar.

O'sha davrni Botu shunday eslaydi: "1919-yil oxirida bo'lsa kerak, turklar "Chig'atoy gurgungchilar" bilan kelishib olish uchun Haydar afandi va uning tarafdorlarini yubordilar. Ularning Fitrat va "Chig'atoy gurungi"ning boshqa rahbarlari bilan nima haqda so'zlashganlari menga qorong'u, ammo bu muzokaradan hech narsa chiqmagan; natijada barcha panturkistlar o'zaro birlashib, bizlarga qarshi shiddatli hujum boshlaganlar. Ular yangi imloni o'rganish bo'yicha Toshkentda ochgan kurslarimizni yopib, aholi o'rtasida go'yo dinga qarshi ish olib borayotganimiz haqida ovoza tarqatdilar. Bu so'nggi tadbir ahvolimizni o'sha zahoti yomonlashtirib yubordi va "Chig'atoy gurungi" chok-chokidan so'kilib ketdi".

"Chig'atoy gurungi" va uning a'zolari o'z fikrlaridan qaytishmadi. Qizg'in bahs-munozaralardan keyin 1921-yilning yanvar oyida o'zbek tili imlosiga bag'ishlangan qurultoyni o'tkazdi. Unda harf va imlo masalasi yuzasidan Fitrat, Ashurali Zohiriy va Botu, sarf va nahv masalasi bo'yicha Ashurali Zohiriy, til va adabiyot yuzasidan Saydali va Fitrat ma'ruzachilar sifatida belgilandi.

1921-yil 1-yanvar kuni soat 5 da qurultoyning birinchi yig'ilishi o'tkazilib,

anjumanning tashkiliy tomonlari ko'rib chiqildi. 2-yanvar kuni "Behbudiy" klubida o'tkazilgan 2-yig'ilishda o'lkaning turli hududlaridan kelgan vakillar ta'limning holati, ona tilining o'qitilishi va unda qaysi imlodagi o'qitilayotganligi kabi axborotlar tinglandi. 3-yanvar kuni esa Fitrat qurultoyida yangi o'zbek imlosi va alifbo masalalari to'g'risida ma'ruza qilib, arab tili tovushlarini ifodalaydigan harflarni alifbo sirasidan chiqarish, unli tovushlarni yozuvda aks ettirish uchun oltita belgi olish va chet so'zlarni ham shu unli harflar bilan yozish, unli va undosh tovushlar uchun alohida-alohida harflar olish, qalinlik va ingichkalikka (singarmonizmga) rioya qilish, harflar shaklini birga tushirish, chet so'zlarni ham turk harflari bilan yozish masalasi haqidagi fikrlarini bayon qildi.

Ashurali Zohiriy Fitrat qarashlarini asosan ma'qullagan holda arabcha va forscha so'zlarni o'zbekchalashtirishga qarshi chiqdi. Ularni arab va fors tillarida qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha qabul qilishni bildirdi. Shuningdek, unli tovushlarni ifodalash uchun "e" va "i" uchun alohida-alohida harf olish shart emasligini, ularni so'z ma'nosiga qarab farqlash mumkinligini bildirdi. Botu esa lotin alifbosiga o'tish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilish ko'pchilik ovozi bilan Fitrat tavsiyalarini ma'qulladi. Arabcha va forscha so'zlar milliy til xususiyatlariga moslashtiriladigan, olti unli va yigirma uchta undosh uchun harflar belgilanadigan, arab harflari bir shaklga keltiriladigan bo'ldi.

Qurultoyning 6-yig'ilishi 4-yanvarda bo'lib, unda Saydali bilan Fitrat til va adabiyot to'g'risida ma'ruza qilishdi.

Yigirmanchi yillarning ikkinchi yarmidan lotin alifbosiga o'tish to'g'risidagi fikrlar kuchayib bordi. 1926-yili Bokuda o'tkazilgan Butunittifoq birinchi turkshunoslar qurultoyida barcha turkiy xalqlarning lotin alifbosiga o'tishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

"Chig'atoy gurungi" 1922-yilda rasmiy jihatdan faoliyatini to'xtatgan bo'lsa-da, lotin alifbosiga o'tish, uning tamoyillarini belgilash, harflar sonini aniqlash, qardosh xalqlar alifbolaridagi harflar shakli bilan imkon qadar mushtaraklikni saqlash, imlo, chetdan so'z olish tamoyillarini belgilash kabi muhim masalalarda Fitrat, Elbek, G'ozii Yunus, Botu va boshqa jamiyat a'zolarining xizmatlari katta bo'ldi.

**Adabiyot.** "Chig'atoy gurungi"ning adabiyot, adabiyotning davr voqealariga munosabati ham tahsinga sazovordir. Masalan, Cho'lpon tomonidan yozilgan "Tarixning zararli takarruri" nomli maqolasida asosan Hamza Hakimzodaning "Farg'ona fojialari" pyesasining Qo'qon teatri-dagi ijrosi tahlil qilingan bo'lib, dastlab jamiyatning adabiyot borasidagi xizmatlari va maqsadiga diqqat qaratilgan: "Orag'a "Chig'atoy gurungi" degan bir jamiyat chiqib qoldi. U jamiyatga mansub kishilar tilni soddalashtirmak maqsadini asos qilib ushlaganlari holda, o'zbek adabiyotining tugallanishiga ham katta ahamiyat berdilar. Tugallanadurg'on adabiyot chin adabiyot bo'lmog'i kerak. Shuning uchun

ular, adabiy asarlarga haqiqiy qimmatini berib, adabiyot kira olmag'on narsalarni shafqatsiz suratda maydondan hayday boshladilar. Ana shul harakatning zarbiga uchrag'onlar orasida Xurshid Sharifning "Kichik askar"i (o'zicha "Kuchuk askar") bilan birga bizning "Farg'ona fojiasi" ham bor edi. "Chig'atoy gurungi" asosini mahkam qurg'onlig'i va chiziqni to'g'ri chizg'onlig'i uchun uni yo'q ket-sa ham, o'zbekning yangi adabiyotida yangi, porloq, sharaflik vazifalar ochdi va ochmoqda davom etadir". Demak, Hamzaning "Farg'ona fojiasi" ham "adabiyot kira olmagan", "shafqatsiz suratda maydondan haydalgan" asarlar qatorida bo'lgan. Nega? Cho'lpon Farg'onada bo'lgan voqealar haqida: "Farg'onaning 1919 va 20-yillari esingizda bordir. Farg'onada oqqan haqli va haqsiz qonlarning hidi Toshkent, Samarqandlarni emas, Maskav, Leningradlarni ham tutib ketdi", "Kechagi voqealar bugun esdan chiqdi. Ertangi voqea oldida ilgari kungisi hech narsa bo'lmay qoldi. Aqllar hatto shu voqealarga guvoh bo'ladurg'on bir doiralari-ga sig'dira olmay qoldilar", deb qayd etadi. Pyesada rol ijro etganlar bu fojialarni, vahshiylikni mutlaqo ochib bera olmagan. Ular "O'sha vaqt dashnoqlarning zulmini ko'rsatish bilan emas, tillarini buzub, masxara qilib adabini berdi".

**"Chig'atoy gurungi"ning ayrim nashrlari.** 1920-yil 9-aprelda "Tong" jurnalining 1-soni chop etildi. Jurnalning muharriri Fitrat, tahrir hay'ati Botu va Elbekdan iborat edi. Ziyosaid

## CHIG'ATOY GURUNGI

### TIL

(Cho'lponga)

Mungli qushum sayrab-sayrab kel, onglat  
Kimlar erur turk tilini sotg'uchi?!  
Bulbul kabi sayrab turg'an bu tilni  
Uyolmayin bu o'lkadan otg'uchi?!  
Boldan totli, jondan tunuq turkchani  
Tushunmayin xo'rlab-xo'rlab aytavchi?!  
Ochunlarda boylig'ini ko'rmasdan  
Kimdir, binga "yarali yaramas" degan?!  
Mungli qushum unlarni qo'y, sen sayra,  
Turk tilining dong'in chiqar ko'klukga  
Qo'y unlarni, unlar yo'ldan ozsunlar  
El ichinda bo'sh, bo'g'ozliq sotsunlar.

**Mashriq Yunus**

"O'zbek vaqtlı matbuoti tarixiga oid materiallar" nomli asarida "Tong" jurnali haqida shunday yozadi: "Shiori: "Yashasin ilmiy, adabiy, ijtimoiy o'zgarish! Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas! Yashasin Sharq qutulishi!"

Eski ham o'rta imlochilarga qarshi yangi imlo bilan davom etdi. Buning yozuvchilari boshida Fitrat bo'lgani holda, "Chig'atoy gurungi" a'zolaridan: O'ktam, Botu, Elbek, Saidali, Toshqin, bulardan boshqa, Bekbo'lat, Darvesh, Namakob, Abdulla begiy, Cho'lpon, Ishchi, Lutfiy, Subutoy, Tuyg'un, Yolqin, Jo'lqunboy va Mirmullalar ham qatnashib turdilar. Bu jurnal til va imlo masalasiga juda katta ahamiyat berdi va bu yo'lda yaxshigina ishladi. Ba'zi bir nomerlari tilimizga kirib qolgan arab va forsiy so'zlarga qarshi jihat bilan maydonga chiqdi". Afsuski, bu jurnalning

chop etilishi uzoq davom etmadi. 1920-yil 15-mayda 3-soni chiqqanidan keyin to'xtab qoldi.

Fitrat shu davrlarda "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Hind ixtilochilari" kabi ozodlik va mustaqillik uchun kurash g'oyalari aks etgan asarlarini yaratdi.

"Gurung" a'zolaridan Fitrat, Cho'lpon, Botu va Elbekning she'rlari joy olgan "O'zbek yosh shoirlari" (1922) nomli to'plamdagi she'rlar orasida Fitratning "Mirrix yulduziga", "Shoir", "Sharq", Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" singari asarlarida yurtparvarlik, millatparvarlik tuyg'ular bo'rtib turar, Farg'ona vodiysidagi voqealar fig'oni, bitmas jarohatlari o'ta ta'sirchan ifodalangan edi.

Bundan tashqari, o'sha davr matbuoti sahifalarida bir qancha asarlar "Chig'atoy gurungi" rukni ostida e'lon qilingan. Masalan, Mashriq Yunusning quyidagi Cho'lponga bag'ishlangan "Til"

nomli she'ri "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 14-sentyabr sonida bosilib chiqqan.

Qisqa qilib aytganda, "Chig'atoy gurungi" milliy tilni arab, fors va ruscha so'zlardan tozalash, alifboni milliy til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda isloh qilish, imloni takomillashtirish, shevalarni o'rganish va shu asosda tilning lug'at boyligini boyitish, chetdan so'z olish tamoyillarini ishlab chiqish, milliy adabiyotni o'tmishdagi mumtoz adabiyot darajasiga olib chiqish, yaratilayotgan badiiy asarlarni chuqur tahlil qilib xolis baholash, yangi ruhdagi badiiy asarlar, maktablar uchun yangi namunadagi o'quv adabiyotlari yaratish kabi bir qancha muhim masalalar bilan shug'ullanishdi.

Lekin bu ulug' maqsad yo'lida tizimli ravishda olib borilayotgan amaliy ishlar mustamlakachilarning qarashlariga, g'oyalari zid edi. Shu bois 20-yillarning o'rtalaridan "Chig'atoy gurungi" va uning a'zolari faoliyati tanqid qilina boshlandi. 30-yillarning boshlaridan esa bu jamiyat haqida ijobiy fikr bildirish mumkin bo'lmay qoldi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyingina "Chig'atoy gurungi" faoliyati xolis o'rganila boshlandi. Uning ilgari surgan hayotbaxsh g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Shu ma'noda ijod maktabida tashkil etilgan jurnalga "Chig'atoy gurungi" nomining berilishi har tomonlama munosibdir.

**Jo'ra Xudoyberdiyev**